



TASVIRIY SAVODXONLIKKA OID O'QUV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'QUVCHILARNI MANTIQUIY VA ABSTRAKT FIKRLASHGA O'RGATISH

Sunnat Aslanovich Shovdirov

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbekiston

"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası" v/b. dotsenti. p.f.f.d.

(PhD) sovdirovsunnat@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10394696>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2023

Accepted: 15th December 2023

Online: 16th December 2023

KEY WORDS

Metapredmetli, badiiy-estetik, umummadaniy kompetensiyalar, dizayn va mediasan'atda chizma-tasviriy modellar, dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura, haykaltaroshlik, tasviriy va amaliy san'at, dizayn, badiiy-amaliy hunarmandchilik, tasviriy san'atning me'yor va uyg'unlik kabi qonuniyatlari.

ABSTRACT

Maqolada tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatish usullariga oid qarashlar, uni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari, uning tarkibiy qismlari bo'lgan o'quv komponentlari, pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika tur va vositalari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatish usullari borasida tavsiyalar berilgan.

Dunyoda tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning tayanch, metapredmetli, badiiy-estetik, umummadaniy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, interaktiv dasturiy vositalar yordamida tasviriy san'at fanini o'qitishning metodik asoslarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, san'atga doir fanlarni o'qitish jarayonida tasviriy savodxonlikni tarbiyalash, dizayn va mediasan'atda chizma-tasviriy modellar, axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash, etik qobiliyatlar, shaxsiy hamda ijtimoiy, madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tasviriy san'at ta'limini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'qitishning interfaol va raqamli texnologiyalarini keng joriy etishga katta ahamiyat qaratilmoqda. "Ustoz-shogird" va badiiy ta'lim an'alarini saqlagan holda o'qitishning ilg'or usullarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga ijodiy ustaxonalar faoliyatini tatbiq etish, tasviriy san'at yo'nalishlarida (dastgohli, grafika, mahobatli, miniatyura,



haykaltaroshlik) faoliyat olib borayotgan iste'dodli ijodkorlarni saralab olish, ularning estetik saviyasi va mahoratini yuksaltirish"¹ alohida ustuvorlik kasb etmoqda.

Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan ta'limiy, tarbiyaviy maqsad va vazifalar o'quvchilarni tasviriy va amaliy san'at, dizayn, badiiy-amaliy hunarmandchilik hamda me'morchilikka oid o'quv materiallari vositasida kompleks estetik ta'sir etish orqali ularning badiiy tasviriy intellektual salohiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish hamda ijodiy kompetensiyalarini tarkib toptirishdan iborat. O'quvchilar tasviriy san'at asoslarini o'rganishga oid o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida ular ijodkorlikka yo'naltiriladilar. Ular masalani yangicha yechimlar orqali o'zlarining ijodkorlik va xayolotlarini, tasviriy san'atning me'yor va uyg'unlik kabi qonuniyatlaridan tasviriy ijodiy faoliyatlarida foydalanish malakalarini takomillashtirib boradilar [3].

Ayni paytda ta'kidlash joizki, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san'atning tarixiy asoslarini o'rganish, badiiy asarlarga chizilgan illyustratsiyalarni ko'zlash asosida o'quvchilar ming yillar oldin yashab o'tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollari, hayvonlar, buyumlarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari va ularning o'zaro nisbatlari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar [4]. Bu tasavvurlarni amaliy tasviriy-ijodiy faoliyatga tadbiiq etilishi o'quvchilarning tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarini muhim komponenti sifatida ahamiyatlidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Tasviriy san'at" o'quv fani o'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatishda, tasavvur va xotirani, tasviriy ijodkorlik va fantaziyani rivojlantirish borasida alohida ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Tasviriy san'at o'quv fanidan olib borilayotgan dars mashg'ulotlarida o'quvchilar oldida turgan masalani bir necha yo'l bilan yechadilar [5]. Bu omil, o'z navbatida, o'quvchilarni chuqur fikrlashga, badiiy-ijodiy o'ylashga yo'naltiradi. Aytaylik, o'quvchilar hayotiy, afsonaviy yoki fantastik mavzularda kompozitsiyalar ishlash jarayonida, mavzu bilan bog'liq bo'lgan voqealarni va uning xarakterli tomonlarini eslashga harakat qiladilar. Bunday mavzudagi kompozitsiyalarni yaratish jarayonida o'quvchi voqea qaysi makon va qaysi davrda, yerdami yoki o'zga sayyoralarda, suv ostidami yoki osmoni-falakda, tabiat quynidami, biror bir uyni ichidami yoki uy atrofida, kompozitsion rasmda odamlar guruhi tasvirlanadimi yoki hayvonlar, tasvirlanadigan mavjudotlarning anatomik tuzilishi, shakli-shamoyili, ranglari, o'lchovlari qanaqa bo'ladi? – kabi mazmundagi qator savollarga javob izlaydilar [6]. Bunga uxshash jarayonlar o'quvchilarda keng mushohada yuritishga oid o'quv kompetensiyalarini shakllantirishga samarali xizmat qiladi.

Tasvir ko'p variantivlik, kombinatsiya va boshqalar asosida ishlanadi [2]. O'quvchilar rasm ishlashda tasviriy san'atning nazariy asoslari – yorug'-soya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning qonun va qoidalarini ongli tasavvur qiladilar va o'zlarining tasviriy faoliyatlarida savodli qo'llaydilar. Ular ishlaydigan rasmlarini tasviriy-ijodiy, yangi, original va betakror mazmunda bo'lishiga jiddiy harakat qiladilar. Shu o'rinda aytish joiz-ki, tasviriy san'at

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 апрелдаги ПҚ-4688-сон "Тасвирий ва амалий санъат соҳаси самарадорлигини янада оширишга доир чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.04.2020 й., 07/20/4688/0475-сон.



darslarining muhim vazifalaridan biri sifatida, o'quvchilarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish va his eta olish, qolaversa shu orqali ularda xotirani rivojlantirish nazarda tutilgan. Shuning uchun tadqiqotda o'quvchilarda shakllantiriladigan bu sifatlar tasviriy savodxonlikka oid kompetensiyalarning muhim koponentlaridan biri sifatida qaraldi.

Ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida qaysidir ma'noda ma'lum miqdorda tasviriy faoliyat bilan shug'ullanishlariga to'g'ri keladi [3]. Ya'niy, rasm chizishni bilishga oid qator kompetensiyalar, nafaqat rassom va dizayner, haykaltarosh va me'morlar uchungina emas, u tarbiyachilar, injenerlar, mediklar, agronomlar, quruvchilar, harbiylar, turli soha mutaxassislari hamda olimlari uchun ham muhim va zarurdir. Aytaylik, ularning har biri o'z kasbiy faoliyatlari davomida turli mazmundagi rasmlar, sxemalar, diagrammalar tuzishlari va ishlashlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, o'z imkoniyatidan kelib chiqib tasvirlagan eskizlari orqali, so'z bilan ifoda etib tushuntirish qiyin kechadigan muhim ahamiyatga ega g'oya va fikrlarini tasvirlab, loyihalab ko'rsatishga harakat qiladilar.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, tasviriy savodxonlikka oid o'quv kompetensiyalarni shakllantirishda o'quvchilarni mantiqiy va abstrakt fikrlashga o'rgatish jarayonida ularning estetik ehtiyojlarini hamda yuksak emotsional ijodiy-badiiy didilarini rivojlantirishga yo'naltirishni ta'minlash barobarida tasviriy san'atga nisbatan qiziqishlarini qoniqtirishning samarali metodlari, uslublari va vositalari (turli-tuman manbalar bilan ishlash, turfa axborotlar shu jumladan, kompyuter savodxonligiga oid axborotlar bilan ishlash va h.) bilan keng tanishtirish lozim. Ayniqsa, o'quvchilarda rassomlar yaratgan san'at asarlariga nisbatan badiiy-estetik qiziqishlarini qondirish maqsadida, ularga ijobiy munosabatda bo'lish va qadrlash, badiiy tasviriy faoliyatlarida esa o'quvchilarni emotsional, hissiy va badiiy tahliliy idrok etishga yo'naltirish muhimdir.

References:

1. Sulaymonov A., Abdullayev N. Tasviriy san'at. 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2014. – 80 b.
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – T.: "Fan", 2004. – 106 b.
3. Шавдилов, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
4. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
5. X. Ibraimov, & S. Shovdirov (2023). THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS. Science and innovation, 2 (B10), 192-198. doi: 10.5281/zenodo.10022427
6. Sunnat Aslanovich Shovdirov (2023). TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TALABLARI. Science and innovation, 2 (Special Issue 13), 527-533. doi: 10.5281/zenodo.10139769
7. Шавдилов С. А. (2017). Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (6), 15-21.



8. Shavdirov, S. A. (2017). Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons. Eastern European Scientific Journal, (1).
9. Шавдилов, С. А. (2018). ОСОБЕННОСТИ ПОДБОРА ЦВЕТА В ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ И ПРИКЛАДНОМУ ИСКУССТВУ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 84-85).
10. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o'ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
11. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS'ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.
12. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.
13. Jalolov S. METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF ARTS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 37-39.
14. Kulmurotov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – С. 365-369.
15. Тоғаев К. Х., Рамозонова Ф. Б. РАНГТАСВИРДА РАНГ МУНОСАБАТЛАРИ ХАМДА ИШЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 27. – №. 2. – С. 85-89.
16. Usmonovna A. Z. et al. AMALIY BEZAK SAN'ATI ORQALI OT-KUTYUR YARATISH VA ESTITIK DUNYOQARASHNI SHAKILLANTIRISH //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 49-51.
17. Xamidovna X. G., Durdona R. CHIZMACHILIK FANINI O'ZLASHTIRISHDA GRAFIK DASTURLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI VA ZARURATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 52-58.
18. Vosiyeva, A. (2023). USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE. Science and innovation, 2(A4), 31-33.
19. Mardonovna M. G. et al. ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING ORNI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 18-22.
20. То'хтақуловна А. Самарқанд давлат университети (Самарқанд, Ўзбекистан) //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 14-17.